



Andijon viloyati Sog'liqni saqlash boshqarmasi boshlig'ining

BUYRUG'I

2024 yil 05. sentabr

№ 134

Andijon sh.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2024-yil 29-avgustdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha mas'ul belgilash to'g'risida"gi 280-sonli buyrug'i haqida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'grisida" 2024-yil 18-iyuldagi PQ-266-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2024-yil 29-avgustdagi 280-sonli buyrug'ining ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 18-iyuldagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga qulay va to'siqlarsiz muhit yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-266-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 2024-yil 29-avgustdagi 280-sonli buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu buyruq bilan 2024-yil 1-sentabrga qadar boshqarmalar va idoralar, ularning hududiy bo'linmalari hamda tizim tashkilotlarida bir nafar rahbar o'rinbosari nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va to'siqlarsiz muhit yaratilishi bo'yicha mas'ul etib belgilanishi hamda ularning zimmalariga yuklanayotgan vazifalar ko'rsatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Boshqarma infratuzilmani rivojlantirish va ekspluatatsiya sho'basi boshlig'i (A.Akbarov) nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va to'siqlarsiz muhit yaratilishi bo'yicha mas'ul etib belgilansin.

Belgilangan muddatlarda boshqarma tasarrufidagi barcha tibbiyot muassasalarida bir nafar rahbar o'rinbosari nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va to'siqlarsiz muhit yaratilishi bo'yicha mas'ul etib belgilansin.

4. Boshqarma infratuzilmani rivojlantirish va ekspluatatsiya sho'basi boshlig'i, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qulay va to'siqlarsiz muhit yaratilishi bo'yicha mas'ul (A.Akbarov)ga:

Boshqarma xo'jalik ishlarini tashkil etish va boshqarish hodimi (S.Hasanov) bilan birgalikda nogironligi bo'lgan fuqarolarga qulayliklar yaratish uchun zarur jihozlar bilan ta'minlash;

boshqarma binosiga kirish va chiqishda nogironligi bo'lgan shaxslar qulay va to'siqlarsiz harakatlanishi uchun sharoitlar yaratish, fuqarolarni qabul qilish joylari

hamda sanitariya-gigiyena shoxobchalaridan (hojatxonalardan) nogironligi bo'lgan shaxslarning erkin foydalanishi uchun moslashtirilishini;

obyektlarda qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari amalga oshirilganda nogironligi bo'lgan shaxslarga sharoitlar yaratish bo'yicha shaharsozlik norma va qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash choralarini ko'rish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish boshliqning birinchi o'rinbosari U.Ismailov zimmasiga yuklansin.

Boshqarma boshlig'i



Sh.Mamajonov